


Узун туман ҳокимининг қарори

Image not found or type unknown



1. Mazkur Qaror bilan:

2022-yil 1-iyuldan boshlab jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan maktabdan tashqari nodavlat sport-ta'lim muassasasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari joriy etilishi:

nodavlat sport-ta'lim muassasalari Soliq kodeksiga asosan ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun belgilangan soliq imtiyozlaridan foydalanishi belgilanganligi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-oktabrdagi "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilari va ularning trenerlarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 878-son qaroriga muvofiq nufuzli xalqaro sport musobaqalarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilarni tayyorlagan davlat sport-ta'lim muassasalari trenerlariga to'lanadigan bir martalik pul mukofotlari nodavlat sport-ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan trenerlar uchun ham tatbiq etilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2.Sportni rivojlantirish bo'limi (A.Raimqulov) bir oy muddatda yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida g'olib hamda sovrindor bo'lgan sportchilar bilan uchrashib, nodavlat sport-ta'lim muassasasini tashkil qilish niyatini bildirgan sportchilarning aniq ro'yxatini shakllantirsin hamda ushbu ro'yxatni tuman hokimligiga yetkazsin;

tuman hokimligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi bilan kelishgan holda bir oy muddatda davlat tasarrufidagi bino va inshootlarning manzilli ro'yxatini shakllantirsin;